

**HARBIY BILIM YURLARDA KURSANTLARINING OG'ZAKI
NUTQIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH
SAMARADORLIGI**

Abdullaeva Sanobar Xamzayevna

IIV Akademiyasi “O'zbek tili va xorijiy tillar” kafedrası

“Yuristlar uchun xorijiy til” fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Jahon oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitish sifatini innovatsion yondashuvlar asosida shaxsning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta'minlashga qaratilgan kreativ mexanizmlari amaliyotga tadbiiq etilmoqda. Ta'lim jarayonlarini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish, harbiy sohadagi ta'lim muassasalarida kursantlarning kasbiy kompetensiyalarining mamlakatlar madaniyati bilan hamohangligini ta'minlash, chet tillarni o'rganishning didaktik imkoniyatlarini rivojlantirish bo'yicha yirik loyihalarni amalga tadbiiq etishga doir tizimli ishlar samarasi o'z natijasini bermoqda.*

Kalit so'zlar: *kompetensiya, og'zaki nutq, yozma muloqot, globallashuv jarayoni, kommunikativ ko'nikma*

Hozirgi vaqtda mutaxassislarning nafaqat oliy ta'limni egallash zarurati, balki ularning shaxsiy va kasbiy maqsadlarda xorijiy tilda og'zaki va yozma muloqotni egallaganliklari muhim omil hisoblanadi. Mutaxassisning mehnat bozoridagi qiymatini oshiruvchi omillardan biri chet tilini egallashi hisoblanadi. Bu globallashuv jarayonida muhim rol' o'ynaydi, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va shaxsiy millatlararo aloqalarni, mamlakatlar o'rtasidagi madaniy munosabatlarni kengaytirishga xizmat qiladi. Tahlillarning ko'rsatishicha, xalqaro standartlarga ko'ra, harbiy sohada tahsil oluvchi kursantlarga xorijiy tilni o'qitish bo'yicha amaldagi dastur xorijiy tilni egallash maqsadini qo'yadi va “etuk fuqarolik shaxsini shakllantirishni nazarda tutadi [1]. Mazkur umumiy maqsad doirasida

«bakalavrlarning kasbiy maqsadlarda madaniyatlararo aloqalarni amalga oshirish qobiliyati, raqobatbardoshlik, doimiy o'zgaruvchi ko'p tilli va ko'p madaniyatli dunyoda o'zini-o'zi rivojlantirishga intilish, ishlab chiqarish va ilmiy sohadagi vazifalarni hal etishda faollik, mustaqil ta'lim olish ehtiyoji va boshqalar ustuvor hisoblanadi» [2]. Zamonaviy harbiy mutaxassis uchun kasbiy bilimlar bilan bir qatorda kasbiy va ishbilarmonlik kompetentsiyaisi ham, og'zaki nutqiy kompetentsiya ham alohida ahamiyatga ega bo'lib, bu ofitserning kasbiy sohada ham xorijiy tilda aloqani tashkil etish va nutqiy vaziyatning tarkibiy qismlarini tahlil qilishga asoslangan holda optimallashtirish qobiliyatini anglatadi.

Yuqori darajadagi shakllangan kommunikativ ko'nikmalar zamonaviy ofitserning kommunikativ kompetentsiyasining asosi ekanligini ta'kidlaymiz, bu uning tegishli vazifalarni, birinchi navbatda, o'qitish, bo'ysunuvchilarni boshqarish bilan bog'liq muammolarni sifatli hal qilish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Kommunikativ vazifalarning murakkabligi va nomuvofiqligi, ularning individual o'ziga xosligi, echimlarning ko'p xilma-xilligi, ulardan faqat bittasi yoki bir nechtasi optimal natijaga erishishga olib keladi, ofitserdan to'liq kommunikativ tayyorgarlikni talab qiladi. Shu sababli, o'qishni tugatgandan so'ng, harbiy jamoalarga rahbarlik qiladigan, turli toifadagi harbiy xizmatchilarni o'qitib, tarbiyalaydigan, boshqa kasbiy vazifalarni hal qiladigan kursantlarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish ham nazariyani rivojlantirish, ham takomillashtirishning dolzarb muammosidir.

Ichki ishlar organlari xodimlarining kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish asoslari oliy harbiy ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi, bu erda kursantlar o'rganish jarayonida maxsus va psixologik-pedagogik bilimlarni o'zlashtiradilar, tegishli ko'nikma va ko'nikmalarga ega bo'ladilar, kommunikativ faoliyatda dastlabki tajribani to'playdilar, shakllantiradilar. Kommunikativ faoliyatga tayyorgarlikning asosiy o'rni ofitser kadrlarining shaxsiy tarkibni tayyorlash, o'qitish, psixologik tayyorlash, boshqa muammolarni hal qilishdagi kundalik faoliyati ularning harbiy kasbiy faoliyatining yetakchi bo'g'inlaridan biri ekanligi bilan izohlanadi. Kursantlarning muloqot ko'nikmalarini shakllantirishdagi

oliy o'quv yurtlari faoliyatini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu ishda ijobiy tajriba bilan birga jiddiy qarama-qarshiliklar, foydalanilmayotgan imkoniyatlar mavjud. Xususan, ushbu muammoni hal qilishda chet tilini o'rganishning eng boy imkoniyatlari yaratilmoqda. Og'zaki nutqiy kompetentsiya tili o'rganilayotgan mamlakat bilan taqqoslangan holda taqdim eta olish kompetentsiyasidir, kommunikativ kompetentsiyalarni o'z ichiga oladi. U hozirgi ko'p madaniyatli dunyoda ta'lim oluvchilarda chet tilini o'rganish muhimligi tushunchasi, chet tilida muloqat qilish, o'z ustida mustaqil ishlash va ijtimoiy moslashuv vositasi sifatida foydalanish ehtiyojini shakllantirish va rivojlantirish, fuqarolik, vatanparvarlik fazilatlarini tarbiyalashda, chet tili orqali madaniyatlararo muloqotni amalga oshirish istagi va xohishida namoyon bo'ladi. Bu omillar murakkab va o'zaro bog'liq bo'lib, til nafaqat aloqa kodlash tizimi, balki shaxs identifikatsiyasining ajralmas qismi, hamda o'sha tilda gapiruvchilar jamoasi madaniyatiga singib ketgan eng muhim kanaldir.

Demak, barcha soha vakillarining og'zaki nutqiy kompetentsiyani takomillashtirish sohalarni insonparvarlashtirish zamonaviy tendentsiyasini aks ettiradi. Mutaxassislarni boshqa madaniyat bilan tanishtiradi, chet tilini o'rganishda yangi bilimlarni egallash jarayonida ularning dunyoqarashi kengayadi, kommunikativ faoliyatini hamda shaxsiy xulqini samarali boshqarishni ta'minlaydi. Aytish mumkinki, xorijiy tilni o'rganuvchilarda og'zaki nutqiy kompetentsiyani takomillashtirish muammosi va bu muammoni hal etish usullarini bayon etish ko'pgina tadqiqotchilarning e'tiborlarini jalb etgan (N.M.Belyakova [52], N.D.Gal'skova [68, 69], M.P.Zemlyanova [86], L.A.Kareva [95], D.S.Mel'nikova [111], M.V.Ozerova [116], M.V.Plexanov [122], N.I.Romanova [126], V.V.Safonova [133, 134], S.Ziyaeva [88], M.B.Urazova [147], K.D.Riskulova [125], I.V.Sultanova [138] va boshqalar). Tadqiqotchilar chet tilini o'rganishda madaniyatlararo muloqot uchun zarur bo'lgan mutaxassislarning og'zaki nutqiy kompetentsiyani egallashlarining muhimligini ta'kidlaganlar. Harbiy soha kursantlarining og'zaki nutqiy kompetentsiyalarini takomillashtirish quyidagi vazifalar orqali amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi:

- Kursantlarga tashkiliy pedagogik shart-sharoitlar yaratish, o'qish davrida nafaqat o'quv dasturida ko'rsatilgan umumiy nazariy, umumiy kasbiy va maxsus fanlarni o'rgatish, balki ijtimoiy, madaniy, professional va u yoki bu yo'nalishdagi xorijiy tildagi bilimlarini takomillashtirish.
- Auditoriya va auditoriyadan tashqari ishlar jarayonida kursantlarni har tomonlama takomillashtirishga erishish.
- Kursantlarning og'zaki nutqiy kompetentsiyalarini takomillashtirishda barcha kursantlarning faol ishtirokini ta'minlash.

Kursantlarni ta'lim olishga ishtiyoqi, layoqatlari, bilim, malaka va ko'nikmalarini takomillashtirish, ular tanlangan kasblarini egallashlari uchun umumkasbiy fanlarni o'qitish, mustaqil va ijodiy ishlashlarini natijaviy tashkil qilish muxim vazifalardan biri hisoblanadi. Respublikamizga turli sohalarda keng qamrovli tafakkuri rivojlangan, erkin fikr yurita oladigan mutaxassislar zarur. Bu masalani bugungi kunda qanchalik dolzarb ekanligini Prezidentimiz SH.M.Mirziyoevning quyidagi fikrlari ham tasdiqlamoqda: “Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda” [1]. Ta'lim-tarbiya jarayonida yoshlarni mustaqil va erkin fikrlashga o'rgatish asosiy o'ringa ko'tarilishi zamon talabidir. Yurtimiz yoshlarining butun hayot davomida, ta'limning barcha bosqichlarida mustaqil fikr yurita olishi asosiy talab bo'lib qolishi kerak.

Xorijiy tilda og'zaki nutqni rivojlantirishda beshta muhim komponentga ahamiyat berish lozim. Bular:

- Talaffuz
- Ravonlik
- Grammatika
- Lug'at
- Tushunish

Shuningdek, kursantlar og'zaki nutqini rivojlantirish strukturasi manipulyatsiya qilish va foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.(Heaton,

2004). Bundan tashqari, Hetrakul so'z boyligi ham og'zaki nutqning tarkibiy qism ekanligini ta'kidlaydi. Nutq mahoratida talaffuz ham muhim jihatdir. (Richards, Platt & Weber). Nutqning ravonligi esa xorijiy tilda oson va bermalol muloqqot qilishda ko'prik sanaladi. Ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlar orqali yondashish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni samarali yechishga xizmat qiladi. Mazmun mohiyatiga ko'ra innovatsion yondashuvlar munosabat yoki jarayonga yangilik kiritishning dinamik tizimi sanaladi. Biz tadqiqotimizda xarbiy bilim yurtlari kursantlarining og'zaki nutqiy kompetentsiyalarini takomillashtirishda quydagi yondashuvlar asosida natijaga erishishni nazarda tutdik:

- ijtimoiy-madaniy yondashuv;
- tizimli yondashuv;
- o'lkashunoslik yondashuvi;
- kompetentsiyaviy yondashuv;

Zamonaviy ijtimoiy fanning va birinchi navbatda, boshqaruv sotsiologiyasining ajralmas qismi ijtimoiy-madaniy yondashuvdir. U odamlarning motivatsiyasi va xatti-harakatlarining eng muhim omillarini aniqlash va o'rganish imkonini beradi, bu jamiyat va madaniyatning organik o'zaro ta'siridir. Rivojlanish ob'ektlar va hodisalarni o'rganishda tizimli va kompleks tarzda amalga oshiriladi. Bu yaxlit tizimli tafakkurda, umuminsoniy madaniyatni shakllantirishda namoyon bo'ladi.

Xususan, xorijiy tillarni o'rganishga tizimli yondashish o'qitishning yangi, yaxlit va uslubiy jihatdan eng samarali usuli hisoblanadi. Tizimli fikrlash til va nutq tarkibiy qismlarining barcha belgilovchi parametrlari va o'zaro bog'liqligini aniqlashga, pirovardida, bilish, tushunish va bilimlarni amaliy qo'llash jarayonlarini optimallashtirishga imkon beradi. XXI asr kursantlarni tayyorlashga boshqacha, yangicha yondashuvni talab qiladi. Bo'lajak ofitserlarni tayyorlash uchun muloqot va hamkorlik muhim. Kursantlarda kompetentsiyalar shakllanishini baholashning tartibi va o'lchovini ishlab chiqish, kompetentsiya o'quv faoliyatining yaxlit natijasi sifatida maxsus diagnostika va baholash predmeti bo'lishi,

kompetentsiyalarga asoslangan o'quv jarayonini loyihalash, berilgan kompetentsiyalar to'plamini shakllantirish, o'qituvchilarning bunday loyihalash uslubiyatini o'zlashtirishi, fanlarning, fanlararo modullarning kontentini aniqlash va kadrlar tayyorlashning yangi modeliga mos keladigan pedagogik texnologiyalardan foydalanish kerak.

Demak, ta'lim amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun maksimal imkoniyatlardan foydalanish kadrlar tayyorgarligida muhim rol` tutmog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063I>. Boduen de Kurtenae. Vvedenie v yazikovedenie. 2004/56
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida” PF-5847-son Farmoni Serebrennikov. Rol` chelovecheskogo faktora v yazike. Yazik i mishlenie M.1988/70
3. Abdullaev A., Inatov A., Ta'lim jarayonini takomillashtirishda tizimli yondashuvning ahamiyati. Zamonaviy ta'lim / Sovremennoe obrazovanie 2014, ?9. 9-13-bet.
4. Celce-Murcia M., Dornyei Z., &Thurrell S. (1995). Communicative Competence: A Pedagogically Motivated Model with Content Specifications. Issues in Applied Linguistics ISSN 1050-4273 C Regents of the University of California VoL 6 No. 2/ P. 25.